

TIBBIYOT XODIMLARIDA TIBBIY ETIKANI RIVOJLANTIRISH

*Mamarqajova Baxtinur**Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi**Turayeva Dildora Shuhratovna**Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tibbiyot xodimlarida tibbiy etikani rivojlantirish, shuningdek, tibbiy etikaning bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Tibbiy etika etikaning falsafiy intizomi bo'lib, uning tadqiqot ob'ekti tibbiyotning axloqiy va klinik tibbiyot amaliyotini va tegishli ilmiy tadqiqotlarni tahlil qiladigan amaliy axloq hisoblanadi. Tibbiy etika har qanday chalkashlik yoki ziddiyat holatlarida mutaxassislar murojaat qilishlari mumkin bo'lgan qadriyatlar to'plamiga asoslanadi.

Kalit so'zlar: tibbiy etika, profilaktika, madaniyat, deontologiya, davolash, klinik tibbiyot, tibbiy eftanaziya

Tibbiyot xodimlarining faoliyatida etika va deontologiya masalalari juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning kasbiy faoliyatining samaradorligi va bemorlarga taqdim etiladigan xizmat sifatini belgilaydi. Etika va deontologik tamoyillar, shifokorlar va boshqa tibbiyot mutaxassislarining bemorlar bilan to'g'ri va samimiy munosabatda bo'lishlarini, bemorlarning huquqlarini hurmat qilishlarini, shuningdek, ularning xavfsizligini ta'minlashlarini ta'minlaydi. Tibbiyotda etika dilemmaning mavjudligi va qarorlar qabul qilishdagi murakkabliklar, tibbiyot xodimlarining yuqori professional va axloqiy darajada ishlashini talab qiladi.

Insoniyat o'z hayoti davomida tabiatning turli salbiy ta'sirlariga uchragan va ana shu ta'sirlar natijasida turli xil kasalliklarga chalinganlar. Yashash uchun kurash jarayonida turli shikastlanishlarga duch kelingan. Tabiiyki inson bunday aziyatlarni bartaraf etish choralarini izlay boshlagan va ular orasidan kuzatuvchan hamda bilimlari ushbu masalani hal etish yo'llarini topganlar. Turli giyohlar, kukunlar, malhamlardan foydalanib bemorlarni davolay boshlaganlar. Natijada asta-sekin odamlar orasidan davolash ishlari bilan shug'ullanuvchi kishilar tanila boshlagan. Bunda davo choralari barchaga birday ko'rsatilgan. Lekin quldorlik tuzumi boshlanishi bilan odamlar orasida tabaqalanish yuzaga keladi. Ma'lum kasb egalari o'z kasblari orqasidan kun kechirishga majbur edilar. Bunday og'ir sharoitda yashay boshlagan aholi orasida kasalliklar ko'payib, ularni davolovchilar malakasi ham kun sayin oshib bordi. Tibbiyotga qiziqish IX asrning oxiri X asrning boshlaridan boshlangan. Shu davrda Misr, Xindiston davlatlarida kasalliklar tana haroratiga, Xitoyda esa tomir urishiga qarab aniqlanar edi. Kasal a'zolari aniqlash uchun eshitib va paypaslab ko'rish usullaridan foydalanganlar.

Tibbiyot etikasining asosiy maqsadi tibbiyot xodimlarining faoliyatida insonning hurmati va qadrini yuqori tutishdir. Etika – bu axloq qoidalarining jamlanmasi bo'lib, shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatida muomala, xulq-atvor va qarorlar qabul qilishda qo'llaniladigan tamoyillarni belgilaydi. Tibbiyot xodimlarining o'z majburiyatini bajarish vaqtidagi yo'l quygan tibbiy xatoliklar (yatrogeniya) va ularni bartaraf etish, uning oldini olish chora tadbirlari, tibbiyot sirilarini saqlashning bemor ruhiyatiga ta'siri turli usullarda olib boriladi.

Hozirgi kunda tibbiy etika va deontologiya bo'yicha mutaxassislarini tayyorlashda yangi ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlarni joriy etish orqali tibbiyot oliy o'quv yurtlarida axloqiy va deontologik bilimlar tizimli tarzda o'rgatilmoqda. Tibbiy etika sohasidagi bilimlar nafaqat talabalarga, balki tibbiyot mutaxassislari ham muntazam ravishda o'rgatiladi, chunki bu sohaga oid masalalar tez-tez o'zgarib turadi. Tibbiyotning zamonaviy talablari shuni ko'rsatadiki, mutaxassislar bemorlar bilan samarali muloqot o'rnatish, axloqiy normalarga rioya qilish va ularni himoya qilish kabi mas'uliyatlarni o'z zimmasiga olishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, tibbiy etikaning rivojlanishi faqat qonunchilik darajasida emas, balki tibbiy tashkilotlarda etika kodekslarini ishlab chiqish va ularni amalda qo'llashni talab etadi. O'zbekistonda ham bunday etika kodekslari ishlab chiqilib, har bir tibbiy muassasada amaliyotga joriy qilindi.

Tibbiyot xodimlarining etik tamoyillarga va deontologik qoidalarga rioya qilishi, faqat bemorning holatini yaxshilash bilan cheklanmaydi. Bu, shuningdek, tibbiyot sohasida umumiy ishonchni va professionallikka bo'lgan hurmatni saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bemorlarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy va psixologik holatini yaxshilashga yordam beradi.

Bemorlarning axloqiy huquqlarini himoya qilish tibbiyotdagi eng muhim masalalardan biridir. O'zbekistonda bemorlarning huquqlari bilan bog'liq qonunlar va me'yorlar ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, ularni amalda to'liq tatbiq etish hali o'zining samarali shaklini topgan emas. Bemorlar va ularning oila a'zolariga tibbiy ma'lumotlarni taqdim etish va qarorlar qabul qilishda ularni ishtirok etish juda muhimdir. Tibbiyotda etika tamoyillarga, xususan, bemorning huquqlarini himoya qilish, unga eng yaxshi davolashni taqdim etish va bemorning roziligini olish kabi jihatlar katta ahamiyatga ega. Etika tamoyillar shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlarining bemorlar bilan qanday munosabatda bo'lishini, ular bilan samimiy va hurmatga asoslangan yondashuvni tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Кузьмина Н.В. Способности, одаренность, талант учителя. – Л., 1995. – С. 32.
2. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. – М., 1947. – С. 335.

3. Dildora Shuhratovna Turayeva. Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqot san'atining ahamiyati."SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. January 2023, Volume 4, Issue 1. P-836-838
4. Turayeva Dildora Shuhratovna. The Place of Communication in Personal Life. Eurasian Scientific Herald. 2022-04-13. Volume 7. P-54-57
5. Turayeva Dildora Shuhratovna. Muloqot san'ati inson faoliyatining eng muhim vositasi sifatida. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 1(5)194-196, 2024
6. Turayeva Dildora Shuhratovna. YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI. SO'NNGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. 2025/4/13. B-28-30
7. Aminjon Qudratovich Aymatov . THE LAW OF INCREASING THE ROLE OF SUBJECTIVE FACTORS IN THE FORMATION OF AESTHETIC ATTITUDE TO NATURE . Academia Globe: Inderscience Research. Volume 2, Issue 5, May, 2021. P-548-553
8. Aminjon Qudratovich Aymatov. SOME ASPECTS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN ENVIRONMENTAL CONSCIOUSNESS AND AESTHETIC PERCEPTION OF THE ENVIRONMENT. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. 2017, Issue 04, Volume 48. P-79-82
9. Aminjon Qudratovich Aymatov. Turayeva Dildora Shuhratovna. International Journal of Advanced Research in ISSN: 2278-6236 Management and Social Sciences. Vol 10/No 12/Dec 2021. P-5-9
10. Turayeva Dildora Shuhratovna . International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Hosted from London, The UK. May 10, 2022.
11. Turayeva Dildora Shuhratovna . International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Hosted from London, The UK. May 10, 2022.
12. Yoldasheva Xurshida, & Turayeva Dildora Shuhratovna. (2025). TIBBIY EKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 90(1), 369-371. <https://journalss.org/index.php/new/article/view/8954>